

MUALLIFLIK HUQUQINING SHAKLLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qodirjon Yusupov

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
magistratura bosqichi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11150265>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda mualliflik huquqlarining shakllanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, mualliflik huquqi bosqichlari, huquqiy asoslari haqida fikrlar bayon etiladi. Shu bilan birga, Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni aniqlash bo'yicha milliy qonunchilik – Fuqarolik kodeksi, Mualliflik huquqi va boshqa turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mualliflar va turdosh huquqlarning buzilishi bo'yicha statistikalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni aniqlash mezonlari, mualliflik va turdosh huquqlar qonunchiligini tahlil qilish, intellektual mulk, ijodkor, roman, konvensiya.

FORMATION AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF COPYRIGHT

Abstract. This article describes the formation of copyright in our country, its specific features, copyright supervisors, and legal bases. At the same time, the national legislation on defining copyright and related rights - the Civil Code, the Law on Copyright and other related rights, and other legal documents were analyzed. Statistics on violations of authors' and related rights are also cited.

Keywords: copyright, related rights, criteria for defining copyright and related rights, analysis of copyright and related rights legislation, intellectual property, creator, novel, convention.

ФОРМИРОВАНИЕ И ОСОБЕННОСТИ АВТОРСКОГО ПРАВА

Аннотация. В данной статье описывается формирование авторского права в нашей стране, его особенности, надзорные органы и правовые основы. При этом было проанализировано национальное законодательство по определению авторского права и смежных прав - Гражданский кодекс, Закон об авторском праве и других смежных правах, а также другие правовые документы. Также приводится статистика нарушений авторских и смежных прав.

Ключевые слова: авторское право, смежные права, критерии определения авторского права и смежных прав, анализ законодательства об авторском праве и смежных правах, интеллектуальная собственность, автор, роман, конвенция.

Mamlakatimizda ochiqlik hukm surayotgan va sohaga oid milliy qonunchilik takomillashtirilayotgan bo'lsa-da, lekin asarlardan ruxsatsiz va o'zboshimchalik bilan foydalanish odat tusiga aylangan, mualliflar va boshqa huquq egalariining asarlaridan foydalanganda ularga haq to'lash tizimi kuchsizligicha qolmoqda.

Intellektual mulkning huquqiy himoyasiga doir qonunchilikni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish milliy iqtisodiyotning innovatsion rivoji hamda mamlakatning intellektual ishlab chiqarishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shunni hisobga olgan holda keyingi paytlarda ijodkorlar, madaniyat, san'at ahli va ijrochilarga davlatimiz rahbari va Hukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va faolligini oshirish, ularni mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning keng targ'ibotchilariga aylantirishga harakat qilinayapti. Ayniqsa, ijodkorlarning mualliflik huquqlarini himoya qilish tizimini kuchaytirish, pandemiya sharoitida ijodkorlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'llari qidirilmoqda. Shu bois ilmiy-ijodiy faoliyatni moddiy ta'minlash, iqtisodiyotni innovatsion bosqichga o'tkazish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ayniqsa, sohada huquqni qo'llash amaliyotini kuchaytirish, huquq egalariining tegishli huquqlariga og'ishmay rioya etish dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Quyidagilar mualliflik huquqi obyektlaridir:

- adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o'quv, publitsistik va boshqa asarlar);
- drama va ssenariy asarlari;
- matnli yoki matnsiz musiqa asarlari;
- musiqali drama asarlari;
- xoreografiya asarlari va pantomimalar;
- audiovizual asarlar;
- rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarlari va tasviriy san'atning boshqa asarlari;
- manzarali-amaliy va sahna bezagi san'ati asarlari;
- arxitektura, shaharsozlik va bog'-park barpo etish san'ati asarlari;
- fotografiya asarlari va fotografiyaga o'xshash usullarda yaratilgan asarlar;
- jo'g'rofiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, jo'g'rofiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar;

barcha turdagi EHM uchun dasturlar, shu jumladan har qanday dasturlash tilida va har qanday shaklda, chunonchi boshlang'ich matn hamda obyekt kodida ifodalanishi mumkin bo'lgan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari¹.

Shu o'rinda mualliflik huquqining taxiriga to'xtalib o'tishimiz lozim.

Xususan, O'zbekiston 1991-yil 31-avgustgacha Rossiya imperiyasi va SSSR tarkibiga kirgan. Shunga ko'ra, respublika hududida Rossiya imperiyasining mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlar, SSSRning mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchiligi mavjud bo'lgan.

SSSR parchalanib ketganidan va mustaqil davlatlar Hamdo'stligi tashkil etilgandan so'ng, sobiq ittifoq respublikalari yangi qonunlar qabul qilinishidan oldin SSR Ittifoqi qonunlariga rioya qilish qaroriga kelishgan.

“SSSR va Respublikalar Ittifoqining fuqarolik qonunchiligi asoslarini joriy etish to'g'risida”gi 1991-yili 31-maydagi SSSR Oliy Kengashining qarori “mualliflik huquqi” bo'limi bilan qabul qilingan. Ushbu bo'limda mualliflik huquqining amal qilish muddati 50 yil bo'lishi belgilangan (137-modda).

1993-yil 24-sentabr kuni Moskvada 10 MDH davlat rahbarlari – Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Ukraina tomonidan mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolangan.

Sovet Ittifoqi parchalanib ketganidan keyin O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z qonunlarini ham shakllantirgan.

1996-yil 30-avgustda O'zbekistonda “mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi qonunning 272-I-sonli birinchi nashri qabul qilingan. 2007-yildagi amaldagi qonun adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasi talablariga to'liq mos kelgan.

2006-yil 20-iyulda kuchga kirgan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahriri O'zbekistonda mualliflarning huquqlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirilgan. Qabul qilingan qonun “jamoatchilikka etkazish” atamasini o'z ichiga olgan. Kino va musiqa tarmog'ida ular bilan shartnoma tuzmasdan joylashtirish qonunchilikning buzilishi hisoblanadi.

Mualliflik huquqini himoya qilish, bu borada javobgarlikni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida qonun/ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.07.2006 yildagi O'RQ-42-son/6-modda.

Jumladan, Adliya vazirligi tomonidan 2019–2022-yillar davomida mualliflar va turdosh huquqlarning buzilish holati yuzasidan iqtisodiy sudlarda 136 ta, ma'muriy sudlarda 65 ta, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda 21 ta, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda 2 ta ish ko'rib chiqilgan va sudlar tomonidan tegishli qarorlar qabul qilingan. Sud qarorlariga muvofiq 216 nafar shaxsdan 297 million so'm miqdorida ma'muriy jarimalar undirilgan.

Shu bilan birga, 2020-yil 81 ta, 2021-yil 887 ta, 2022-yilda esa 1 ming 209 ta qonunbuzilish holati aniqlangan. Ularning asosiy qismi Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanilgan holda sodir etilmoqda. Jumladan, 2022 yilda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi qonunbuzilish holatlarining 31 foizi Internet tarmog'ida sodir etilgan².

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini qo'llash talab darajasida emasligi, kontrafakt mahsulotlarga samarali qarshi kurashish, Internet tarmog'idagi "uz" domenida faoliyat ko'rsatayotgan veb-saytlar tomonidan mualliflik huquqiga rioya etilish holatlarini monitoring qilib borish ishlarida sustkashliklarga yo'l qo'yib kelingani aytib o'tildi.

Bundan tashqari, mas'ul vazirlik va idoralar mualliflik huquqi buzilgan shaxslar tomonidan murojaat kelib tushmagunga qadar uning huquqlarini tiklash borasida muayyan harakatlar olib bormaslik holatlari mavjud ekanligiga to'xtalib o'tildi.

Jumladan, ayrim nashriyotlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa foydalanuvchilar tomonidan asar mualliflari (merosxo'r)ning ruxsatisiz ular asarlaridan ochiqdan-ochiq foydalanib kelinayotganligi, ushbu holatlar ustidan nazorat tadbirlari lozim darajada amalga oshirilmayotgani ko'zga tashlanyapti.

Har qanday davlat milliy qonunchiligini yaratayotganda mualliflik huquqiga oid yuqoridagi tamoyillarni qonun doirasida mustahkamlashi, muallifning erkin irodasini doimo himoya ostiga olishi Xartiyaning asosiy g'oyasini tashkil etadi. Bugungi kunda ushbu Xartiya asosida 116 ta davlatdagi mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarni o'zida birlashtirgan CISAC tashkiloti faoliyat yuritmoqda.³

Amaldagi qonunchilikka muvofiq intellektual mulk obyektlari ikki guruhga bo'linadi.

Sanoat mulki obyektlari (tovar belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari, ixtiro va foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari hamda geografik ko'rsatgichlar);

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari (adabiy va badiiy asarlar, ijrolar, fonogrammalar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va h.k.).

² <https://kknews.uz/oz/168250.html>

³ <https://www.cisac.org/>

O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud qonunchilikka muvofiq jismoniy va yuridik shaxslar o‘zlariga tegishli bo‘lgan sanoat mulki obyektlariga nisbatan huquqlarini himoya qilishlari uchun ushbu obyektlar belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak.

Biroq mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlarining himoya qilish tartibi sanoat mulki obyektlaridan farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq fan, adabiyot va san‘at asariga mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo‘yicha yuzaga keladi. Ya’ni sanoat mulki obyektlarida bo‘lgani kabi mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ro‘yxatdan o‘tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

Ushbu Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko‘rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo‘lsa, asar muallifi hisoblanadi.

1886-yil 9-sentabrda qabul qilingan “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Bern Konvensiyasining 8-moddasida (O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 27-avgustdagi 681–II-sonli Qaroriga muvofiq qo‘shilgan. Ushbu Konvyensiya O‘zbekiston Respublikasi uchun 2005-yil 19-apreldan boshlab kuchga kirgan) ushbu Konvensiyada berilgan muhofaza kun yangiliklari to‘g‘risidagi xabarlarga yoki oddiy matbuot axboroti tusiga ega bo‘lgan turli voqealar to‘g‘risidagi xabarlarga tatbiq etilmasligi nazarda tutilgan.⁴

Mualliflik huquqi tamoyillari deb negizida yotgan asosiy qoidalarga aytiladi. Bu tamoyillar ichida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan ijod erkinligi muhim ahamiyatga ega.

Muallif asarni yaratishda yoki e‘lon qilishda agarda u davlat sirlari, shaxsiy sirlar yoxud boshqalarning qonuniy manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lmasa, oldindan ruxsat olish, asar mazmunini nazoratdan o‘tkazish talab etilmaydi. Mualliflik huquqining yana bir asosiy qoidalaridan biri muallif huquqlarining vujudga kelishi, uni muhofaza etish, asarni yaratish fakti asosida vujudga kelishi, u qandaydir rasmiyatchiliklarga rioya etilishi talab etilmasligidir. Ushbu tamoyil FKning 1041-moddasi va Qonunning 10-moddasida o‘z ifodasini topgan.

Mualliflik huquqi buzilsa, qo‘llanadigan bir necha huquqiy ta’sir choralari bor. Ijroi-yu huquqiy va ma’muriy-huquqiy ta’sir choralari shular jumlasidan. Bundan tashqari, fuqarolarning o‘zi fuqaroviy tartibda sud orqali kompensatsiya undirishi mumkin. Muallifning huquqlarini o‘zlashtirib olish holati yuz bersa, bu jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi hamda Jinoyat

⁴ “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Bern Konvensiyasi/1886-yil 9-sentabr.

kodeksining 149-moddasi bilan tegishli tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi. Bu bilan prokuratura organlari shug‘ullanadi.

Intellektual mulk sohasini himoya qilish va mualliflik huquqiga oid xalqaro shartnomalarning qoida va normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasidagi ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan. Sohada faoliyat olib borayotgan mualliflar huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyati tizimli tashkil etilmagan⁵.

Bundan tashqari, mualliflik va turdosh huquq obyektlaridan noqonuniy foydalanish holatlari bo‘yicha Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 1771-moddasi qo‘llanadi.

Huquqlari buzilgan taqdirda, fuqarolar, ya‘ni mualliflar yoki boshqa huquq egalari sud orqali “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunning 65-moddasi va 62-moddasiga asosan, huquqbuzardan bazaviy hisoblash miqdorining 20 barobaridan 1000 barobarigacha kompensatsiya undirishi mumkin. Kompensatsiyaning miqdorini, albatta, sud belgilaydi.

Sanoat mulki yo‘nalishi bo‘yicha intellektual mulkning huquqiy ta‘sir choralari ko‘rish huquqiy himoya yo‘nalishi bo‘yicha tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida qonunning 371-moddasiga asosan, huquq buzilgan holatda huquq egasiga nisbatan moliyaviy sanksiya qo‘llash mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, fuqarolarda mualliflik huquqlarining shakllanishi uchun biz birinchi navbatda, mualliflik huquqining nimaligini bilishimiz kerak. Mualliflik huquqining nimaligini bilishimiz bu - huquqiy ong bo‘lsa, mualliflik huquqiga rioya qilishimiz va uni hurmat qilishimiz bu - huquqiy madaniyatdir.

REFERENCES

1. Yuldashov, A. (2020). Intellektual mulk bo‘yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va Butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o‘rni.[The importance of national intellectual property strategies and the role of the World Intellectual Property Organization in this regard. Legal Information,] Yurist axborotnomasi, 1(2), 53-59. 6.
2. To‘rakulova N., Yuldashov A. Intellektual mulk huquqi himoya qilish mexanizmini takomillashtirishda xalqaro shartnomalarning o‘rni va ahamiyati //Conferencea. – 2022. – S. 467-471.
3. Yuldashov A. Geografik ko‘rsatkich tushunchasi va iqtisodiyotni mustahkamlashda uning tutgan o‘rni //Yurist axborotnomasi. – 2021. – T. 2. – №. 1. – S. 249-257.

⁵ <https://yuz.uz/uz/news/mualliflik-huquqi-va-turdosh-huquqlar-himoyasi-qay-holatda>

4. Yuldashev A. Oliy taʼlim va ilmiy-tadqiqot muassasalarning intellektual mulk hamda innovatsiyalarni yaratishga doir faoliyatini takomillashtirish masalalari //in Library. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 58-65.
5. Yuldashov A., Choriev M. Dogovorno-pravovye otnosheniya v oblasti avtorskogo prava i otvetstvennosti za narushenie avtorskogo prava: natsionalnyy i zarubejnyy opyt //Obshchestvo i innovatsii. – 2020. – T. 1. – №. 1/s. – S. 511-522.
6. Yuldashov, A. A. “Government policies related to social protection of disabled persons in Uzbekistan: National and international aspects” (2012): 186-191.
7. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar toʻgʻrisida qonun/ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 20.07.2006 yildagi OʻRQ-42-son/6-modda.
8. “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Bern Konvensiyasi/1886-yil 9-sentabr.
9. <https://yuz.uz/uz/news/mualliflik-huquqi-va-turdosh-huquqlar-himoyasi-qay-holatda>
10. <https://kknews.uz/oz/168250.html>
11. <https://www.cisac.org/>